

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

THE SCHOLARSHIP

PEDAGOGNING NUTQIY MADANIYATI.

Maktabgacha ta'lim" fakultetining

Maktabgacha ta'lim yonalishi

3-kurs 533-20- guruh talabasi

Bekpòlatova Muxlisa

Shayzakova Navbahor

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni shundan iboratki, Òqituvchining òquvchilar bilan bòladigan muloqoti, muloqot jarayonida e'tibor berishi kerak bòlgan qoidalar, òqituvchi nutqidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish haqida malumot berilgan.

Kalit sòzlar. Nutq faoliyati, muloqot, tizimlilik, aniqlik, tushunarlilik, soflik, mantiqiylik, adabiy til, nutq madaniyati.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san`at. Lekin bu san`atdan bebahra insonlar ham hayotimizda uchrab turadi. Bu san`atdan, boshqa kasb egalaridan farqli o'laroq o'qituvchi bebahra bo'lsachi? Bu aslo kechirib bo'lmas holdir. Qaysi fanni o'qitishdan qat'i nazar, o'qituvchining asosiy quroli, ta'bir joiz bo'lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o'tkir bo'lmasa, yerning ham, ketmonchining ham holiga maymunlar yig'laydi. Xuddi shunday, o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. o'qituvchi go'zal, o'zini ham, so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimni òquvchilarga osonlik bilan tushuntiradi.

Shu o'rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o'tish lozim:

“Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmazlik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z

zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir”

Hozirda nutqni ikki turga bòlib órganamiz:

1. Oǵzaki nutq.
2. Yozma nutq.

Ma'lumki, nutq og'zaki va yozma ko'rinishga ega. Og'zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo'lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Og'zaki so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam (pauza), ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar asosida tinglovchiga etib boradi.

O'qituvchi faoliyatida oǵzaki nutq katta ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya berish jarayoni kòproq ogzaki nutqda olib boriladi. Shunday ekan, o'qituvchi nutqining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi. Bular nutqning to'g'riligi, aniqligi, ta'sirchanligi, tushunarligi, mantiqiyliги hisoblanadi.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy tili me'yorlariga muvofiq kelishidir.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan materialni o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

Nutqning mantiqiyliги uning asosiy sifatleri – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto'g'ri tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqiylikni buzadi.

G'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lgan nutq sof nutq deyiladi.

Tinglovchi va o'quvchi ruhida o'zgarish, hayajon yasovchi nutq ta'sirchan nutq deyiladi.

O'qituvchi nutqiga quyiladigan talablar quyidagilar:

- Imkoni boricha o'rtacha, muloyim ovozda so'zlamog'i.
- O'zini qo'pol, nojo'ya so'zlardan tiymog'i.
- Bir maromda, ohangda gapirmasligi.
- So'zlaganda keraksiz harakatlar qilmasligi.
- Gapirganda qomatini to'g'ri tutishi.
- Har qanday og'ir vaziyatda ham jahlini sezdirmasligi.
- O'z nutqi ustida tinimsiz ishlashi, mashq qilishi.
- So'zlaganda inson shaxsini kamsituvchi so'zlardan foydalanmasligi.
- O'quvchining fikrini sabr-toqat bilan tinglay bilishi.
- O'z ona tilini, adabiy til me'yorlarini chuqur bilmog'i.
- Badiiy kitoblarni mutolaa qilishi.
- Sinonim-ma'nodosh so'zlarni yaxshi o'rganmog'i.

- O'z so'zlariga rioya qilgan holda o'qituvchiga xos kiyinishi.
- Nutqida o'quvchilar ko'nglini ko'taradigan samimiy maqtovlardan foydalanishi.
- Zamonaviy fan yutuqlarini o'rganmog'i.
- O'z so'zini dalillar asosida isbotlab berishi.

Eng avvalo o'zi aytgan so'zlariga o'zi rioya qilmog'i va o'quvchiga ham nutqi, ham fe'l-atvori, ham kiyinishi, ham odobi bilan namuna bo'lmog'i shart.

O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Chunki, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni "bosib" qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'qituvchining ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'qituvchining o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining diqqatini ushlab turmaydi. Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqliigidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o'quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda almashtirib turadi. O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasi uchun bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilg'ashga, to'la idrok etishga qiynaladi.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, o'qituvchi nutqi yuqoridagi talab va xususiyatlarga javob berishi lozim hisoblanadi. Hech kim ham mukammal emas lekin, agarda o'qituvchilar nutqida kamchilik bo'ladigan bolsa oz ustilarida ishlashlari va ko'proq badiiy asaslarni o'qishlari lozim. Agar o'qituvchi nutqi talabga javob bersa, ta'lim jarayonini olib borishda qiynalmaydi. O'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati. T., 2004-yil.
2. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslar. R. Qo'ng'urov, E. Begmatov, Y. Tojiyev. - T., 2002-yil.
3. D.R. Babayeva „Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent-2018.
4. N. Bekmirzayev „Notiqlik san'ati asoslari" Toshkent- Yangi nashr-2008.